



**YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI**



**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI**



YANGI AVLOD TASHABBUSLARI VA BARQAROR TARAQQIYOT



**RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

**2025-YIL
20-MAY**

“YANGI AVLOD TASHABBUSLARI VA BARQAROR TARAQQIYOT” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

AXBOROT XATI

KONFERENSIYA HAQIDA

Konferensiyaga olimlar, soha mutaxassislari, oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim tashkiloti rahbar kadrlari, ilmiy izlanuvchilar, iqtidorli talabalar va barcha qiziquvchilar ishtirok etish uchun taklif etiladi!

Konferensiya o'tkazilish joyi va vaqti: 2025-yil 20-may kuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

Konferensiyaga materiallar qabulining so'nggi kuni: 2025-yil 19-mayga qadar.

Konferensiya tili: o'zbek, rus, ingliz.

Konferensiyaning maqsadi: Yangi avlod tashabbuslari va barqaror taraqqiyot yo'lida yoshlarning ijtimoiy innovatsiyalar, texnologiya, ta'lim, tadbirkorlik, ruhiy salomatlik, ekologiya, ijtimoiy moslashuv hamda axborot maydonidagi faolligini chuqur tahlil qilish, ushbu yo'nalishlarda yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarni aniqlash va ularning yechimiga doir ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish. Konferensiya yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar va amaliyotchi ekspertlar o'rtasida fikr almashuv maydonini yaratish, xalqaro va mahalliy tajribalarni o'rganish hamda istiqbolli kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuvlarni ilgari surishni maqsad qilgan.

KONFERENSIYANING ILMIY YO'NALISHLARI

- Ijtimoiy innovatsiyalar: kreativ va innovatsion fikrlash, ta'limda yangi yondashuvlar.
- Yoshlarning salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va ekologiya bo'yicha faolligini oshirish.
- Raqamlashtirish va axborot maydonida yoshlar: raqamli texnologiyalar, mediasavodxonlik va onlayn faollik.
- Yashil iqtisodiyot va start-up loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

RO'YXATDAN O'TISH VA KONFERENSIYA MATERIALLARINI TAQDIM ETISH

Konferensiyaga professor-o'qituvchilar, doktorantlar, izlanuvchilar, magistrantlar, talabalar, yoshar va ta'lim tizimidagi barcha muassasalar xodimlari hamda soha mutaxassislari ilmiy maqola va tezislarni yuborishlari mumkin.

Maqola va tezislar elektron shaklda **2025-yil 19-mayga** qadar raqamlitalim.trm.uz/conference veb-manzili orqali qabul qilinadi.



Xorijlik mualliflarning ilmiy maqola va tezislari conference24@yomi.uz elektron pochta manzili orqali qabul qilinadi.

KONFERENSIYA MATERIALLARINI RASMIYLASHTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Maqola va tezisda muallifning tadqiq qilinayotgan muammoga o'z qarashlari to'liq aks etishi, aniq ilmiy xulosalari, amaliy taklif va tavsiyalari keltirilishi zarur. Materiallar o'zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Konferensiya doirasida Tashkiliy qo'mita tomonidan eng yaxshi yosh mualliflar saralab olinadi.

Matn formati Microsoft Word, satr oralig'i 1,5 intervalda, shrifti Times New Roman 14 kegel. Matn formatining chegarasi tepa va pastdan 2,0 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hamda matn kengligi bo'yicha tekislangan bo'lishi lozim.

Maqolaning tepa qismida qator o'rtasida bosh harflar bilan mavzu, satr qoldirib o'ng burchagida muallif haqida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi zarur: familiyasi, ismi, ishlash joyi, ilmiy darajasi va unvoni, talabalar uchun ta'lim olayotgan joyi, yo'nalishi va mutaxassislik nomi, elektron pochta manzili. Satr qoldirib, annotatsiya, kalit so'zlar, asosiy matn va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yozilishi talab etiladi.

Tezis mualliflari 3 (uch) nafardan oshmasligi lozim. Har bir muallif mualliflik hissasi 1 (bir) koefitsiyentgacha tezis yoki maqolalar taqdim etishi mumkin.

Havolalar (snoska) sahifa so'ngida beriladi. Tezis hajmi 3-5 bet bo'lishi hamda qaysi yo'nalishga tegishliligi maqolaning nomlanishida keltirilishi kerak (masalan: 1-Sh.Axmedov).

Ushbu talablarga javob bermaydigan ilmiy maqola va tezislar qabul qilinmaydi. Matnda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun javobgarlik muallif zimmasida bo'ladi. Tashkiliy qo'mita qabul qilinmagan tezislarni mualliflarga qaytarish va izoh berish majburiyatini olmaydi.

Taqdim etilgan tezislar mazmuni belgilangan talablarga mos kelgan taqdirda konferensiya to'plamiga kiritiladi va Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, Yoshlar muammolarini o'rganish instituti hamda hamkor tashkilotlar rasmiy saytida e'lon qilinadi.

TASHKILIY QO'MITA MANZILI

Tashkilotlar:

Yoshlar ishlari agentligi;

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi;

Yoshlar muammolarini o'rganish instituti.

Manzil: Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45.

Telefon: +998 97 403 66 87